

Interpretation of Word-Forming Suffixes in Uzbek and English

E'zoza F. Sharipova

Student

Gulistan State Pedagogical Institute

Gulistan, Syrdarya Region

Uzbekistan

Abstract

Today's linguistic interpretations should be given not in a form disconnected from the chain of development of the phenomenon, but in its path and stages of development, in its contradictions, in its internal contradictions. Such a direction is Uzbek substantial linguistics, which is currently also exerting its influence on European science. One of the basic concepts of this research method is the intermediate third - the recognition of the phenomenon as a normative, legitimate linguistic unit between two contradictions, contradictions, connecting two extreme points/events with each other, embodying their contradictory features, and the interpretation of almost every unit in the linguistic system in such an intermediate third position.

Keywords: linguistics, form, word-forming adverb, Uzbek language, English language

O'zbek va ingliz tillaridagi so'z yasovchi qo'shimchalar talqini

E'zoza F. Sharipova

Talaba

Culiston davlat pedagogika instituti

Guliston sh., Sirdaryo viloyati

O'zbekiston Respublikasi

Annotatsiya

Bugungi tilshunoslik talqinlari hodisaning taraqqiyot zanjiridan uzilgan shaklda emas, balki o'z taraqqiyot yo'li va bosqichlarida, ziddiyatida, ichki qarama-qarshiligida berishi lozim. Bunday yo'nalish hozirgi kunda yevropa faniga ham o'z ta'sirini ko'rsatayotgan o'zbek substansial tilshunosligidir. Bu tadqiq usulining tayanch tushunchalaridan biri oraliq uchinchi – ikki ziddiyat, qarama-qarshilik orasida ularni birlashtiruvchi, ikki chekka nuqtani/hodisani bir-biri bilan bog'lovchi, ularning ziddiyatli xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiruvchi hodisaning me'yoriy, qonuniy lisoniy birlik sifatida tan olinishi va lisoniy tizimdagi deyarli har bir birlikni mana shunday oraliq uchinchi mavqeida talqin etishdir.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, shakl, so'z yasovchi qo'shimcha, o'zbek tili, ingliz tili.

Bugungi tilshunoslik talqinlari hodisaning taraqqiyot zanjiridan uzilgan shaklda emas, balki o'z taraqqiyot yo'li va bosqichlarida, ziddiyatida, ichki qarama-qarshiligida berishi lozim. Bunday yo'nalish hozirgi kunda yevropa faniga ham o'z ta'sirini ko'rsatayotgan o'zbek substansial tilshunosligidir. Bu tadqiq usulining tayanch tushunchalaridan biri oraliq uchinchi – ikki ziddiyat, qarama-qarshilik orasida ularni birlashtiruvchi, ikki chekka nuqtani/hodisani bir-biri bilan bog'lovchi, ularning ziddiyatli xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiruvchi hodisaning me'yoriy, qonuniy lisoniy birlik sifatida tan olinishi va lisoniy tizimdagi deyarli har bir birlikni mana shunday oraliq uchinchi mavqeida talqin etishdir. Lekin bugun O'zbekistonda ta'lim tizimida keng amaliyotda bo'lgan bu tilshunoslikda *derivatsiya* – so'z yasash muammosi deyarli “tesha tegmagan”, o'rganilmagan sohadir. Buning asosiy sababi esa *derivatsiya* va *relyatsiyaning* o'zaro munosabatlari muammosi yechimining asosiy tamoyillarining shakllantirilmaganligi va amaliyotga tatbiq etilmaganligi, tarixiy tilshunoslikda juda chuqur o'rganilgan *derivatsiya* muammosining struktural

tilshunoslikda, lison~nutq dixotomiyasi izchillik bilan amaliy tahlil jarayonida tadbiiq etilganlik nuqtai nazardan o'rganilmaganligidadir.¹

Derivatsiya va relyatsiyaning substansial tadqiqida bu ilmiy tushunchalarning yuqorida sanab o'tilgan umumlingvistik talqiniga tayangan holda quyidagilarga qat'iy rioya qilish lozim.

Umuman olganda, tilshunoslikning rivojlanish bosqichlari yer yuzining barcha jabhalarida turlicha holatda shkillanadi hamda amaliyotga tatbiiq etiladi. Bu kabi tilshunoslik meyyorlari minglab bosqichlarni o'z ichiga oladi. Jumladan, so'z yasovchi qo'shimchalarning yuzaga kelishi, ularning o'rtasidagi farqli va o'xshash jihatlar o'sha xalqning yashash muhiti, ularning joylashhish o'rni hamda yaqin masofadagi tillarning ta'siri natijasida bu boradagi me'yorlar shakillanadi. Demak, o'zbek va ingliz tillaridagi so'z yasovchi qo'shimchalarning ham farqi va o'xshash jihatlar mavjud ekanligini kuzatishimiz mumkin.

O'zbek va ingliz tillarlaridagi yangi so'zlarning yasashida ishlatiladigan o'xshash jihatlar har ikkala tilda ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, o'zbek tilida: *kitob* → *kitobxona*, *yoz* → *yozuvchi*; ingliz tilida *write* → *writer*, *book* → *bookshelf* kabi tarzda qo'llaniladi.²

O'zbek tilida yangi so'z yasashda ishlatiladigan qo'shimchalar, ya'ni so'z yasovchi qo'shimchalar, juda muhim rol o'ynaydi. Ular so'zga qo'shilib, yangi ma'no beradi yoki uni boshqa so'z turkumiga aylantiradi. Masalan,

-chi – kasb, shug'ullanuvchi shaxs, faoliyat bildiradi. o'qituvchi → **o'qituvchi-chi**, san'at → **san'atchi**, rasm → **rasmchi**;

-lik / -chak / -chilik – holat, sifat, joy, kasb, predmet kabi umumiy tushunchalar hosil qiladi. Masalan, do'st → **do'stlik**, o'zbek → **o'zbekchilik**, bola → **bolalik**;

-dor / -vchi / -gar – egalik, shug'ullanuvchi, kasb egalari yoki biror narsa egasi. *ilmu* → **ilm-dor**, *xizmat* → **xizmatkor**, *yoz* → **yozuvchi**;

-ona – sifat hosil qiladi, ko'pincha mehr, samimiyat yoki ohang beradi. Do'st → **do'stona**, ona → **onajonona**, mehmon → **mehmonona**;

-siz / -li – sifat hosil qiladi. Suv → **suvli**, **suvsiz**, tuz → **tuzli**, **tuzsiz**, mehr → **mehrli**, **mehrsiz**.³

Ingliz tilida yangi so'z yasashda ishlatiladigan qo'shimchalar, ya'ni **prefixes** va **suffixes** qo'shimchalar ham o'zbek tilidagi kabi ishlatilishini ko'ramiz. O'zbek tilidagi qonuniyatlar kabi ular yordamida so'zning ma'nosi yoki so'z turkumi o'zgarishi kuzatiladi. Prefixeslar so'zning oldiga qo'shiladi va ko'pincha so'z ma'nosini o'zgartiradi, lekin so'z turkumini o'zgartirmaydi. Masalan, **un-** / inkor (not) / *unhappy*, *unfair*, **re-** / yana, qayta (again) / *rewrite*, *redo*, **dis-** / inkor, qarama-qarshi (opposite) / *disagree*, *disappear*, **pre-** / oldin (before) / *preview*, *prepay*, **mis-** / noto'g'ri (wrongly) / *misunderstand*, *mislead*, **over-** / haddan tashqari (too much) / *overeate*, *overwork*, **under-** / kam, yetarli emas (too little) / *underpaid*, *underestimate*.⁴

Ingliz tilida so'z yasash Suffixes, ya'ni orqa qo'shimchalar orqali ham so'z yasashini ko'rishimiz mumkin. So'zning **oxiriga** qo'shiladi va ko'pincha **yangi so'z turkumi** hosil qiladi. Masalan, ot → sifat, fe'l → ot, va h.k.

Ingliz tilidagi yasashining bu turida ot so'z turkumiga oid **-er** / **-or** *teacher/ actor / faoliyat bilan shug'ullanuvchi*, **-ness** *kindness / darkness / sifatdan ot yasaydi*, **-ment** / *enjoyment / development / harakat natijasi*, **-tion** / **-sion** / *creation / decision / harakat, jarayon*, **-ist** / *pianist, artist / kasb, faoliyat egasi* kabi misollar orqali asoslash mumkin. Ingliz tilidagi ot so'z turkumiga oid suffixeslar qatorida sifat, fe'l va ravish kabilarni ham kiritish mumkin.⁵

-ful / *hopeful, beautiful / to'liq, ega*, **-less** / *hopeless, powerless / yo'q* (inkor), **-ous** / **-ious** / *dangerous, curious / sifat bildiradi*, **-able** / **-ible** / *readable, possible / mumkin*, bo'ladigan, **-y** / *cloudy, funny / shunga o'xshash*

¹ Hozirgi ўzbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 1980. – B.372; Hozirgi ўzbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 2007. – B.199–205.

² Hozirgi ўzbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 1980. – B.372; Hozirgi ўzbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 2007. – B.199–205.; Ingliz tili grammatikasi. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2008. – B.335.

³ Sayfullaeva R., Mengliev B., Boqieva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – B. 28; Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – B. 28.

⁴ Ingliz tili grammatikasi. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2008. – B.335.

⁵ Ingliz tili grammatikasi. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2008. – B.335.

xususiyat kabi qo'shimcha va ular orqali ifodalangan leksemalarda so'z yasalishi bilan bo'liq hodisalarning leksik, semantik jihatlari yoritib berilgan.⁶

Adabiyotlar

1. Sayfullaeva R., Mengliev B., Boqieva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – B. 28.
2. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – B. 28.
3. Hozirgi ўzbek adabiy tili. – Тошкент: Фан, 1980. – Б.372.
4. Hozirgi ўzbek adabiy tili. – Тошкент: Фан, 2007. – Б.199–205.
5. Ingliz tili grammatikasi. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2008. – Б.335.
6. Sharipov F. Ўзбек замонавий морфологик назариясининг шаклланиши, тараққиёт тенденциялари ва истиқболлари. Фил. фан. док. ...дисс. –Гулистон, 2022, 252 б.

Reviewer:

F. G. Sharipov

DSc in Philological Sciences, Professor of Gulistan State University

⁶ Ingliz tili grammatikasi. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2008. – Б.335.; Sharipov F. Ўзбек замонавий морфологик назариясининг шаклланиши, тараққиёт тенденциялари ва истиқболлари. Фил. фан. док. ...дисс. –Гулистон, 2022, 252 б.